

INGLIZ VA O'ZBEK BADIY DISKURSIDA GENDER
XUSUSIYATLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Axmedova Sarvinoz Hikmatovna

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

sarvi5335@gmail.com

Mizrobova Vazira Raximovna

BuxDU, Lingvistika(ingliz tili), 1-bosqich magistranti

mizrobovavazira@gmail.com

ANNOTATSIYA. XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N. Teliya bu haqida shunday yozadi: "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigмага xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir"

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, gender tushunchasi, o'zbek badiiy diskursi

**LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF GENDER CHARACTERISTICS IN ENGLISH
AND UZBEK LITERARY DISCOURSE**

Abstract. By the beginning of the 21st century, linguocultural science has become one of the leading directions in world linguistics. Linguistics is a science that studies language as a cultural phenomenon, and its subject is language and culture in mutual relationship. In particular, V.N. Telia writes about it like this: "Linguoculturalology is a science that studies the human factor, more precisely, the cultural factor in a person. This means that the center of linguo-cultural studies is a complex of achievements typical of the anthropological paradigm of man as a cultural phenomenon.

Key words: linguoculturalology, gender, gender characteristics, uzbek literary discourse

Hozirgi vaqtda badiiy diskursdagi gender xususiyatlar va lingvokulturologiya va jahon, xususan, ingliz, o'zbek tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Bundan tashqari davlatlar rivojlanishida alohida e'tiborga molik bir qator masalalar sirasiga jamiyat, davlat, ta'lim, oila tuzilmalarida gender tenglikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, gender rivojlanishda muhim ahamiyatga ega tushuncha sifatida o'rganilishi lozim.

Ilm-fan, tadqiqotlar maydoniga gender tushunchasi o'tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Bu davrga kelib feminist olimlar tomonidan turli qarashlar, g'oyalar ilgari surila boshlandi. Gender tushunchasi, uning shakllanishi, o'rganilishi fanlararo bog'liqlik asosida tadqiq etishni talb qilgani asnosida, ushbu tushunchanini barcha fan sohalari nuqtai nazardan tadqiq etish kerakligini taqozo etadi. O'z davrida turli fan vakillari qatorida tilshunoslar ham ushbu masalaga alohida e'tibor bilan yondashib kelishgan. Bunday olimlar qatoriga V.Fon.Gumbold, A.A.Potebnya, Dj.Lakoff, T.A. van Deyk, L.Push, E.S.Kubryikova, V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov, A.Vejbitskaya, A.V.Kirilina,

I.Zikova, D.V.Semenova kabi olimlarni kirgizishimiz mumkin. Ular gender tushunchasini kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslikga doir asarlarida atroflilicha tadqiq qilishgan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab..." nomli malomasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan.

Ingliz va o'zbek badiiy diskursida gender xususiyatlarining lingvokulturologik tahlili dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bevosita o'zbek tili grammatikasida gender tushunchasining mavjud emasligi buni yanada murakkablashtiradi. Zero o'zbek tili grammatikasida har bir jins uchun alohida so'zlar mavjud bo'lmasda ayollar nutqi erkaklarnikidan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Lingvokulturologiyaning ayollar nutqiga xos bo'lgan jihatlari alohida e'tiborga molikdir. Ayollar nutqidagi madaniylik inson ruhiyatiga so'z bilan ta'sir o'tkazish lingvokulturologiyaning o'ziga xos jihatlardan biri sanaladi. Ushbu sohada ayollar nutqi haqida gap ketganda, bevosita gender tafovutlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Nutq uslublari, nutqiy xulq-atvor ko'rinishlari, nutqiy muomala modellarining tanlanishi ayol va erkakning nutq jarayonidagi eng muhim farqlanish jihatlari hisoblanadi. Mazkur holatda uslub deganda lingvistik xususiyatlar majmuyi tushuniladi-fonetik, ritm, intonatsiya, morfologik, sintaksis, leksik xususiyatlar erkak yoki ayollarga xos nutqiy xulq-atvor bilan tasvirlanadi. Ayollar erkaklarga nisbatan tezroq, ko'proq, ifodali gapirishlari mumkin. Ayollar so'zning oxirini "yutib yuboradilar", erkaklar esa, aksincha, ayollar o'ziga xos ohangda so'zlashishi mumkin. Shuningdek, ayollar nutqiga ularning qaysi millat vakilasi ekanliklari ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Masalan G'arb ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo'llab turishga moyil bo'ladilar. Sharq ayollarining nutqi G'arb ayollari nutqidan ba'zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kattalarga hurmat, shirin muaomilalilik, andisha, hayo va hamiyatlilikning beqiyos darajasi ularning nutqini bezovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ayollar nutq madaniyligida bir holat borki, ayollar qarshi jins vakillariga nisbatan bo'ysinuvchanlik xarakteriga egadirlar. Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romanidagi Oftob oyim nutqida bu holat yaqqol namoyon bo'ladi: -Siz muvofiq ko'rgan bir ishka qarshi tushib ra'yingizni qaytarolmayman, chunki nima bo'lganda ham sizning otaliq ismingiz bor, ham ko'broq ixtiyor sizning qo'lingizdadir"-, deya Mirzakarim qutidorning qizlarini Otabekka berish taklifiga ko'nadi. Ayollar nutqidagi ushbu xususiyat turg'un emasligi bilan ham ajralib turadi. Aynan shu romandagi Otabekning validasi O'zbek oyim obrazi bo'ysinuvchanlik xususiyatidan ancha yiroq qahramondir. Zero, Otabekni ikkinchi bor uylashga majburlar ekan, Yusufbek hojining shoshma deyishiga qaramay: -Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz bir xudbin qildingiz. O'g'ul o'stirish bir turda bo'lmas deya keskin fikr bildirishi yuqoridagi bo'ysinuvchanlik omilining tamoman ziddidir. Bundan kelib chiqilsa, bo'ysinuvchanlik omili ham fe'l-atvorga va ayolning oiladagi mavqeyiga ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abdulla Qodiriy „O`tkan kunlar”. Yangi asr avlodi”. Toshkent, 2018.
2. Sh.Usmanova. „Lingvokulturalogiya” darslik, Toshkent, 2019.
3. Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Краснодар, 2007.
4. Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX века: итоги, тенденции, перспективы // Лингвистические исследования в конце XX века. – М.: ИНИОН, 2000. – С.25-55
5. Ergasheva G. “Turli tillar tizimida gender terminologiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar” dissertatsiya DS, Toshkent 2018.
6. M.To`xtasinov. “Badiiy matnlardagi sleng so`zlarning lingvomadaniy va gender xususiyatlari ingliz va o`zbek tili materiallari asosida” dissertatsiya PhD. Toshkent 2011.
7. “The role of gender and language learning strategies in learning English” Oktay Aslan; Turkiya 2009.
8. Umurova, X. (2020). Semantic Properties of the Terms of Wedding Ceremony Used in Bukhara Dialect. *JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed*, 6(9), 2581-4230.
9. Umurova, K. (2022). LINGUACULTURAL FEATURES OF WEDDINGS IN UZBEKISTAN AND UNITED KINGDOM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 26(26).
10. Hikmatovna, A. S. (2023, January). HUMAN HELPERS IN ENGLISH AND UZBEK FAIRYTALES. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 194-196).
11. KODIROVA, H. (2023). INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA SOXTA DISKURSNING PRAGMATIK PARAMETRLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 29(29).
извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8920
12. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). Categorization in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 28, 351–356. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/653>
13. Rasulov, Z. I., & Saidov, K. S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 8–12.
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_B0C234AB2BF7FF280FE2B272EAEA790F05DDC162.pdf
14. Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf
15. Tursunov, M. (2022). PROVERB AS AN ESSENTIAL LEXICAL UNIT REPRESENTING NATIONAL CULTURE AND IDENTITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 22(22).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7961